

DZYUDODA TAKTIK KOMBINATSION HARAKATLARNING MOHIYATI VA ULARNI TASNIFLASH YONDASHUVLARI

Samarqand davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası
assistenti

Kim Dinara Vladislavovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada dzyudo sport turida qo‘llaniladigan taktik kombinatsion harakatlarning nazariy mohiyati, ularning tarkibiy tuzilishi va zamonaviy sport pedagogikasi fanida shakllangan tasniflash yondashuvlari tahlil qilingan. Taktik kombinatsion harakat tushunchasi alohida texnik usullarning izchil, o‘zaro bog‘liq va raqib javob harakatini hisobga olgan holda quriladigan majmua sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda o‘zbek olimlari hamda xorijiy mualliflar tomonidan taklif etilgan tasniflash tizimlari qiyosiy tahlil qilingan. Natijada taktik kombinatsion harakatlarni tasniflashning to‘rtta asosiy yondashuvi - funksional-maqсадli, biomexanik-harakat tuzilishiga oid, raqobat vaziyatiga bog‘liq va yosh-malaka darajasiga asoslangan yondashuvlar aniqlangan hamda ularning 12-14 yoshli dzyudochilarni tayyorlash amaliyotidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: dzyudo, taktik kombinatsion harakatlar, hujum harakatlari, texnik-taktik kompleks, tasniflash yondashuvlari, yosh dzyudochilar, sport kurashi, raqobat faoliyati.

ABSTRACT



This article analyzes the theoretical essence of tactical combination actions used in judo, their structural composition, and the classification approaches established in modern sports pedagogy. A tactical combination action is examined as a coherent, interrelated set of individual technical methods constructed with consideration of the opponent's response. The study provides a comparative analysis of classification systems proposed by Uzbek scholars and foreign authors. As a result, four principal approaches to classifying tactical combination actions are identified - functional-purpose-based, biomechanical-motor-structure-based, competitive-situation-based, and age/skill-level-based - and their significance for the practice of training 12-14-year-old judokas is substantiated.

Keywords: judo, tactical combination actions, attacking actions, technical-tactical complex, classification approaches, young judokas, sport wrestling, competitive activity.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется теоретическая сущность тактико-комбинационных действий, применяемых в дзюдо, их структурный состав, а также подходы к классификации, сложившиеся в современной спортивной педагогике. Тактико-комбинационное действие рассматривается как последовательная, взаимосвязанная совокупность отдельных технических приёмов, выстраиваемая с учётом ответной реакции соперника. В исследовании проведён сравнительный анализ классификационных систем, предложенных узбекскими учёными и зарубежными авторами. В результате выявлены четыре основных подхода к классификации тактико-

комбинационных действий - функционально-целевой, биомеханико-структурный, ситуативно-соревновательный и возрастно-квалификационный, - обоснована их значимость для практики подготовки дзюдоистов 12-14 лет.

Ключевые слова: дзюдо, тактико-комбинационные действия, атакующие действия, технико-тактический комплекс, подходы к классификации, юные дзюдоисты, спортивная борьба, соревновательная деятельность.

KIRISH. Zamonaviy dzyudo sport turi yuqori dinamiklik, raqobat sharoitining tezkor o'zgaruvchanligi va texnik-taktik arsenalning doimiy boyib borishi bilan tavsiflanadi. Xalqaro musobaqalar darajasida g'alabani belgilovchi omillardan biri sportchining alohida texnik usullarni emas, balki o'zaro mantiqiy bog'langan, ketma-ket va raqibning javob harakatini hisobga oluvchi taktik kombinatsion harakatlarni qo'llay olish mahoratidir. Yakka texnik usulning o'zi zamonaviy yuqori malakali raqibga nisbatan kam samara berishi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan, shu sababli kurash nazariyasi va metodikasida "kombinatsiya", "seriya", "taktik kompleks" kabi tushunchalar alohida tadqiqot predmeti sifatida shakllangan.

Taktik kombinatsion harakatlarni ilmiy jihatdan asoslash muammosi ikki yo'nalishda dolzarblik kasb etadi. Birinchidan, sport pedagogikasi nazariyasi darajasida - bu tushunchaning mazmuni, tarkibiy elementlari va boshqa yaqin tushunchalar (texnik usul, taktik harakat, kombinatsiya, seriya)dan farqlovchi belgilarini aniq ta'riflash zarurati mavjud. Ikkinchidan, amaliy-metodik darajada - mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan taktik kombinatsion harakatlarni tizimli

tarzda tasniflash, ularni yosh xususiyatlariga, malaka darajasiga va raqobat vaziyatlariga mos ravishda tanlash mezonlarini ishlab chiqish zarurati bor. Xususan, 12-14 yoshli dzyudochilarni tayyorlash bosqichida taktik kombinatsion harakatlarning ilmiy asoslangan tasnifiga tayanish mashg'ulot jarayonini samarali rejalashtirish, texnik-taktik komplekslarni izchil o'zlashtirish ketma-ketligini belgilash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi - dzyudo sport turida taktik kombinatsion harakatlarning nazariy mohiyatini ochib berish hamda o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlarida shakllangan tasniflash yondashuvlarini tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

ASOSIY QISM. Kurash sport turlari nazariyasida "taktik kombinatsion harakat" tushunchasi bir necha yaqin, biroq mazmunan farqlanuvchi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq holda qo'llaniladi: texnik usul, taktik harakat, kombinatsiya va seriya. G.S. Tumanyanning sport kurashi nazariyasiga bag'ishlangan asarida ta'kidlanishicha, kombinatsion harakat alohida texnik usullardan farqli o'laroq, "birinchi usulning ikkinchisini tayyorlashga xizmat qilishi", ya'ni oldingi harakat keyingi harakat uchun biomexanik va psixologik zamin yaratishi bilan xarakterlanadi.

Bu yondashuvni davom ettirgan holda, D.V. Radin o'zining 12-14 yoshli dzyudochilarni tayyorlash modeliga bag'ishlangan tadqiqotida taktik kompleks tushunchasini kengroq shaklda talqin qiladi: bunga ko'ra taktik kompleks - bu nafaqat texnik usullar ketma-ketligi, balki ularni qo'llashning turli raqobat vaziyatlariga moslashtirilgan variantlari majmuidir. Ushbu ta'rif taktik



kombinatsion harakatning ikki tomonlama - ob'ektiv va sub'ektiv tabiatini ochib beradi.

O'zbek olimi A. Alxamov kurash sport turlaridagi taktik harakatlarning umumiy tasnifini keltirar ekan, ularni uch guruhga - qat'iy hujumkorlik harakatlari, mudofaa-himoya harakatlari va qarshi hujum harakatlariga ajratadi, bunda hujumkorlik harakatlari, o'z navbatida, oddiy va murakkab shakllarga bo'linadi. Bu yondashuv taktik kombinatsion harakatni hujum taktikasining eng yuqori, murakkablashgan shakli sifatida belgilaydi.

Xorijiy adabiyotda taktik kombinatsion harakat tushunchasi ko'pincha "technical-tactical action" atamasi orqali ifodalanadi. X. Dopico, E. Iglesias-Soler va E. Karbaleyra tomonidan ishlab chiqilgan tasnif tizimida dzyudo harakatlari nafaqat texnik bajarilish tuzilishi, balki taktik maqsadga muvofiqligi mezon bo'yicha ham guruhlanadi, bunda "combination" alohida kategoriya sifatida ajratib ko'rsatiladi va u ikki yoki undan ortiq texnik elementning bitta taktik niyat doirasida uzviy birlashuvi sifatida ta'riflanadi. D. Soriano va hammualliflari Rio-2016 Olimpiya o'yinlari g'oliblarining kurash faoliyatini kuzatish tizimi asosida tahlil qilar ekan, yuqori malakali dzyudochilarda muvaffaqiyatli hujumlarning katta qismi aynan oldindan tayyorlangan taktik kombinatsiyalar natijasida amalga oshirilganini statistik jihatdan asoslab berishadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirib, taktik kombinatsion harakatni quyidagicha ta'riflash mumkin: bu - sportchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan, ikki yoki undan ortiq texnik usulning raqibning kutilgan javob harakatini hisobga

olgan holda, aniq taktik maqsadga erishish uchun izchil va o‘zaro shartlangan tarzda bajariladigan harakatlar majmuidir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili taktik kombinatsion harakatlarni tasniflashda bir nechta mustaqil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar shakllanganligini ko‘rsatadi.

Funksional-maqsadli yondashuv. Ushbu yondashuv taktik kombinatsion harakatlarni ularning raqobat vaziyatidagi vazifasiga ko‘ra guruhlaydi. A. Farhodovning yuqori malakali dzyudochilar tayyorgarligiga bag‘ishlangan tadqiqotida taktik modellar individual va guruh modellarga bo‘linadi, bunda individual modellar, o‘z navbatida, hujumni boshlash, hujumni rivojlantirish va hujumni yakunlash bosqichlariga xizmat qiluvchi kombinatsiyalarga ajratiladi. Bu yondashuvda asosiy mezon - kombinatsiyaning raqobat holatidagi funksional o‘rni: tayyorlovchi, asosiy va yakunlovchi kombinatsiyalar.

Biomexanik-harakat tuzilishiga oid yondashuv. Bu yondashuv kombinatsiyalarni tashkil etuvchi texnik usullarning yo‘nalishi va biomexanik bog‘liqligi asosida tasniflaydi. Dopico va hammualliflari tasnifida kombinatsion harakatlar “bir yo‘nalishli” va “qarama-qarshi yo‘nalishli” turlarga ajratiladi. Ushbu tasnif kombinatsiyaning biomexanik samaradorligini - ya’ni birinchi texnik usul raqib tanasida hosil qilgan muvozanat buzilishining ikkinchi usul uchun qanchalik qulay zamin yaratishini - baholash imkonini beradi.

Raqobat vaziyatiga bog‘liq yondashuv. Ushbu yondashuv tarafdorlari taktik kombinatsion harakatlarni ularning qo‘llanish sharoitiga ko‘ra tasniflaydi: hujum kombinatsiyalari, qarshi hujum kombinatsiyalari va aralash

kombinatsiyalar. I. Abduraxmanova 14-16 yoshli dzyudochilar misolida o'tkazgan tadqiqotida video tahlil metodi orqali musobaqaviy sharoitdagi hujum kombinatsiyalarining dinamik tuzilishini o'rgangan va yosh sportchilarning katta qismi tayyorgarlik jarayonida faqat hujum kombinatsiyalarini o'zlashtirishga, qarshi hujum kombinatsiyalariga esa yetarlicha e'tibor berilmasligini aniqlagan. D. Soriano va boshqalar tomonidan qo'llanilgan kuzatish tizimida ham xuddi shunday tamoyil - kombinatsiyalarni "hujumkor tashabbus" va "raqibning harakatiga javob" mezonlari bo'yicha ajratish - asos qilib olingan.

Yosh va malaka darajasiga asoslangan yondashuv. Bu yondashuv sportchining yosh xususiyatlari va malaka darajasidan kelib chiqib, taktik kombinatsion harakatlarning murakkablik darajasini farqlaydi. D.V. Radin o'z modelida 12-14 yoshli dzyudochilar uchun taktik komplekslarni uch darajaga - oddiy, o'rta murakkablikdagi va murakkab darajalarga ajratadi, bu esa mashg'ulot jarayonini bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyiliga mos keladi. I. Matmuratova turli vazn toifalaridagi dzyudochilar misolida o'tkazgan tadqiqotida taktik kombinatsiyalarni tanlashda nafaqat yosh, balki vazn toifasi va jismoniy tipologik xususiyatlarning ham hisobga olinishi zarurligini asoslab bergan.

Keltirilgan to'rtta yondashuvning har biri taktik kombinatsion harakatlar hodisasining alohida qirrasini yoritadi va ular bir-birini istisno etmaydi, aksincha, amaliyotda o'zaro to'ldiruvchi tarzda qo'llaniladi: bitta kombinatsiya bir vaqtning o'zida ham funksional o'rniga, ham biomexanik tuzilishiga, ham vaziyatga, ham murakkablik darajasiga ko'ra tasniflanishi mumkin. Shu sababli zamonaviy sport

pedagogikasida taktik kombinatsion harakatlarni tasniflashning ko'p o'lchovli modeli maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, taktik kombinatsion harakat dzyudo sport turining nazariy-metodik asosini tashkil etuvchi murakkab pedagogik-biomexanik hodisa bo'lib, u alohida texnik usullarning oddiy yig'indisi emas, balki raqibning javob harakatini hisobga olgan holda quriladigan, ichki mantiqiy izchillikka ega bo'lgan harakatlar tizimidir. O'zbek olimlari (A. Alxamov, A. Farhodov, I. Abduraxmanova, I. Matmuratova) va xorijiy mualliflar (D.V. Radin, G.S. Tumanyan, X. Dopico va hammualliflari, D. Soriano va hammualliflari) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarni umumlashtirish natijasida taktik kombinatsion harakatlarni tasniflashning to'rtta asosiy yo'nalishi - funksional-maqsadli, biomexanik-harakat tuzilishiga oid, raqobat vaziyatiga bog'liq va yosh-malaka darajasiga asoslangan yondashuvlar aniqlandi. Ushbu yondashuvlarning kompleks tarzda qo'llanilishi, xususan, 12-14 yoshli dzyudochilarni tayyorlash jarayonida taktik komplekslarni murakkablik darajasi bo'yicha izchil joylashtirish, hujum va qarshi hujum kombinatsiyalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda yosh sportchilarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan nazariy umumlashtirish keyingi tadqiqotlar uchun - xususan, 12-14 yoshli dzyudochilarni tayyorlash modelini yaratishda taktik kombinatsion harakatlar majmuini ilmiy asoslangan tarzda tanlash va joylashtirish uchun - metodologik zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. Радин, Д.В. Модель подготовки юных дзюдоистов 12-14 лет с использованием тактических комплексов атакующих действий: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Радин Дмитрий Викторович. - СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена, 2022. - 154 с.
2. Туманян, Г.С. Спортивная борьба: теория, методика, организация тренировки: учеб. пособие в 4 кн. Кн. 4: Планирование и контроль. - М.: Советский спорт, 2000. - 383 с.
3. Dopico, X., Iglesias-Soler, E., & Carballeira, E. (2014). Classification of judo motor skills: tactical and motor criteria approach. Archives of Budo Science of Martial Arts and Extreme Sports, 10(1), 1-9.
4. Soriano, D., Tarragó, R., Lapresa, D., Callan, M., & Iglesias, X. (2024). Observation system for the technical-tactical analysis of judo by the Rio 2016 Olympic champions. PLOS ONE, 19(5), e0303689. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0303689>
5. Alxamov, A. Kurashdagi taktik harakatlar tasnifi va mazmuni // Ilmiy konferensiya materiallari. - 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17953160>
6. Farhodov, A. Yuqori malakali dzyudochilarning texnik va taktik tayyorgarligini takomillashtirish // Scientific-theoretical journal of International education research. - 2025. - Vol. 3, № 3. - B. 44-47.
7. Abduraxmanova, I. 14-16 yoshli dzyudochilarda hujum kombinatsiyalari va ularni musobaqaviy sharoitda qo'llash usullarini takomillashtirish // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. - 2025. - Vol. 3, № 11. - B. 10-16.



8. Matmuratova, I.B. Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. - 2026. - Vol. 4, № 6. - B. 6–9.